Shuni qayd etish joizki, Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo-Tinch okeani va Yevropa mintaqalariga taalluqli bo'lgan aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyalari ishlab chiqilgan va ular amalga oshirilish jarayonida. Ushbu rivojlanayotgan amaliyot va xalqaro tajriba "yashil" iqtisodiyot, "yashil" iqtisodiyot siyosati yo'nalishlari, ularning turli soha va milliy ustuvorliklar bo'yicha qamrab olinishi hamda bu boradagi institusional to'siqlar, xavf-xatarlar va bunday tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga bunday tajribani o'rganish "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini milliy ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklar va maqsadlar bilan samarali bog'lash orqali kutilayotgan xavf-xatarlarni bartaraf etishga yordam beradi. O'z navbatida, "yashil" iqtisodiyotga o'tish katta kapital xarajatlarni talab etadi. Bu borada mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishda "yashil" moliyalashtirish vositalari, xususan "yashil" obligatsiyalardan foydalanishning xorij amaliyoti va tajribasini chuqur tahlil qilish asosida zarur taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish mavzusi makroiqtisodiyotda ko'p talqin qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi dastlabki izlanishlar T. Maltus va D. Rikardolarning ilmiy izlanishlarida aks etadi. "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish g'oyasi ilgari surilganga qadar bo'lgan davrdagi izlanishlar asosan chyeklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi va zaharlanishi, shuningdek, tabiiy biologik jarayonlar buzilishi bilan bog'liq muammolarning ortib borayotganligiga qaratilgan. Atrof-muhit ifloslanishining oldini olish maqsadida 1980–2000-yillarda "yashil" iqtisodiyot va "yashil" moliyalashtirish terminlari paydo bo'ldi. R. Solou va V. Leontyevning ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sish g'oyalari ilgari surilib, matematik va iqtisodiy modellashtirish faol qo'llanildi [1].

Ingliz iqtisodchisi E. F. Shumaxer o'z tadqiqotlarida talabni qondirish va uni o'stirishga asoslangan iqtisodiy tizimni qoralaydi va talabning haddan tashqari o'sishi yangi iqtisodiy inqirozlarni yuzaga chiqarishini ta'kidlaydi. E. F. Shumaxer "Iste'mol – bu maqsad emas, minimal iste'mol qilish orqali maksimal yaxshi turmush tarziga erishishning vositasi bo'lishi kerak", – degan g'oyani ilgari surib, "Taraqqiyot – atrof-muhit va suvni ifloslantirishga hamda o'rmonlarni yo'q qilishga olib keladi", – degan xulosaga keladi [2].

Yuqorida qayd etib o'tilgan fikrlarga asoslangan holda dunyo miqyosida cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni tejab ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi va zaharlanishning oldini olish, shuningdek, tabiiy biologik jarayonlar buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida global miqyosda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish zarurati yuzaga kelganligini qayd etish mumkin.

Oxirgi paytlarda korporativ moliya sohasidagi rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida korporativ "yashil" obligatsiyalar e'tirof etilmoqda. Bunday obligatsiyalarni chiqarishdan tushgan mablag'lar qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish, "yashil" binolar qurish va resurslarni tejash kabi atrof-muhit va iqlimga mos loyihalarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Misol uchun, 2014-yil mart oyida "Unilever" kompaniyasi o'ziga tegishli mavjud zavodlardan chiqindi, suvdan foydalanish va issiqxona gazlari chiqindilarini ikki baravar kamaytirish uchun 250 mln. funt sterlinglik "yashil" obligatsiya chiqardi. Shunga o'xshash tarzda, 2017-yil iyun oyida "Apple" qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ta'minot zanjirida energiya samaradorligini oshirishni moliyalashtirish uchun 1,0 mlrd. dollarlik yashil obligatsiyalar chiqardi [3].

Dunyoda global majburiyatlar ortib borayotgan bir paytda 2015-yilda bo'lib o'tgan Parij iqlim kelishuvi doirasida keng doiradagi mamlakatlar iqlim bo'yicha barqaror iqtisodiyotga o'tish majburiyatini o'z zimmlariga olgan. Shu asnosda, "yashil" obligatsiyalar bozoriga turli emitentlar va keng toifadagi sarmoyadorlar, xususan, investisiya fondlari, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, kichik va o'rta biznes sub'yektlarining qiziqishlari ortishi hisobiga kelajakda mazkur bozorning yanada rivojlanishi kutilmoqda. Shuning uchun ham, Italiya, Lyuksemburg, Meksika davlatlaridagi hamda Oslo, London, Shanxay va Shenchjen shaharlaridagi fond birjalari "yashil" obligatsiyalar bozori rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida fond birjasi tarkibida "yashil" obligatsiyalar bozori segmentini yaratishdi. Shubhasiz, ushbu bozor segmentlari "yashil" obligatsiyalarning likvidligini oshirishga, shaffofligini ta'minlashga va obro'sini ko'tarishga yordam beradi va global iqtisodiyotni yashillashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni ko'paytirishga xizmat qiladi. [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI, TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" obligatsiyalar xususiy tashkilotlar, davlat tashkilotlari timsolida milliy hukumat, mahalliy hukumat yoki davlat organlari hamda xalqaro moliya institutlari masalan, Jahon banki, Yevropa investisiya banki va boshqalar tomonidan chiqarilishi mumkin. "Yashil" obligatsiyalar asosan AQSH dollari va yevroda chiqariladi (emissiyaning 80% ga yaqini), ularning o'rtacha muomalada bo'lish muddati 5–10 yilni tashkil etadi. "Yashil" obligatsiyalar nafaqat atrof-muhitga e'tiborli investorlar orasida, balki iqlim o'zgarishlarining korxonalar va davlat siyosatiga sezilarli ta'sir qilishidan xabardor bo'lgan investorlar o'rtasida ham tobora ommalashib barqaror investisiya vositasiga aylanib bormoqda.



“Yashil” obligatsiyalar oddiy obligatsiyalar bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar ekologik toza loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda iqlim o‘zgarishini yumshatish bilan bog‘liq ishlarga ishlatiladi ^[5].

Jahon amaliyotida “yashil” obligatsiyalarni xalqaro kapital bozoriga chiqarish va xalqaro reyestrda kiritish uchun Kapital bozorlari xalqaro Assosiativasi (ICMA-The International Capital Market Association) va Iqlim obligatsiyalari tashabbusi (CBI – Climate Bond Initiative) talablariga javob berishi kerak.

Muomalaga chiqarilayotgan obligatsiyalar “yashil” obligatsiyalar sifatida tan olinishi uchun yuqorida qayd etib o‘tilgan tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilgan asosiy tamoyillarga mos kelishi kerak. Asosiy tamoyillar belgilangan yo‘nalish va qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan, barcha ishtirokchilar uchun bir xil bo‘lgan ixtiyoriy qoidalar to‘plamidir. Asosiy tamoyillar global qarz kapitali bozorlarining taraqqiyotni moliyalashtirishdagi rolini oshirish orqali ekologik va ijtimoiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.


Asosiy tamoyillarga “yashil” obligatsiyalarni chiqarishning maqbul amaliyotlari hamda global boshqaruv tamoyillari va tavsiyalari singdirilgan. Tamoyillar ma‘lumotlarni ochiqlash va shaffoflikni ta‘minlash orqali ijtimoiy va ekologik maqsadlarga erishishni nazarda tutadi va shu asosda bozor yaxlitligi saqlab qolinadi. “Yashil” obligatsiyalarning asosiy tamoyillari moliya bozori ishtirokchilarini ekologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning salbiy ta‘siri to‘g‘risida ko‘proq xabardor qilish asnosida barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun katta hajmdagi kapitalni jalb qilishga qaratilgan.

“Yashil” obligatsiyalar tamoyillari emitentlarni ekologik xavsiz va barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadi sari yetaklab, buning natijasida atrof-muhitni muhofaza qilish va zararli chiqindilar emissiyasi nolga teng bo‘lgan iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Yashil” obligatsiyalar tamoyillari ixtiyoriy qo‘llaniladigan tavsiyalardir. Bunday tavsiyalar ma‘lumotlar shaffofligi va oshkor etilishi to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi hamda “yashil” obligatsiyalar bozori rivojlanishida yaxlitlikni ta‘minlash orqali bunday turdagi obligatsiyalarni chiqarishda aniq yondashuvga ega bo‘lishni ta‘minlaydi.

“Yashil” obligatsiyalar tamoyillari emitentlarga ma‘lumotlarni ochiqlash jarayonlariga to‘liq amal qilishni tavsiya qiladi. Sababi bunday ma‘lumotlar investorlar, tijorat banklari, anderayterlar, bitim tashkilotchilari, sug‘urta kompaniyalari va bozorning boshqa ishtirokchilari uchun yangi muomalaga chiqarilayotgan “yashil” obligatsiyalarning xususiyatlarini aniqlab olishlari uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

“Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish quyidagi 4 ta asosiy tamoyillarga mos bo‘lishi kerak:



1-rasm: “Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish tamoyillari¹

1. Mablag‘larning ishlatilishi

“Yashil” obligatsiya tamoyillarining eng muhim tarkibiy qismi bu obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lardan foydalanish masalasi bo‘ladi. Bunday qimmatli qog‘ozlarni sotishdan tushgan mablag‘lar faqat “yashil” loyihalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi zarur va qimmatli qog‘ozlarni chiqarish uchun tayyorlangan hujjatlarda “yashil” loyihalarga sarflanishi aniq aks etishi kerak. Shuningdek, barcha amalga oshirilishi rejalashtirilgan “yashil” loyihalar emitent tomonidan baholangan va miqdor jihatdan qayd etish mumkin bo‘lgan ekologik naf keltirishi zarur.

Agarda obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar to‘liq yoki ularning bir qismi qayta moliyalashtirish uchun ishlatiladigan bo‘lsa, emitentlar tomonidan tushgan mablag‘larning qancha qismi “yashil” loyihalarni moliyalashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatilishi, qancha qismi qayta moliyalashtirish uchun ishlatilishi to‘g‘risidagi qiyosiy ma‘lumotlar loyiha portfellariga investisiya kiritish ulushlarini ko‘rsatilgan holda batafsil axborot taqdim etadilar.

“Yashil” obligatsiya tamoyillari “yashil” loyihalarni amalga oshirish orqali iqlim o‘zgarishlari ta‘sirini yumshatish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish, tabiiy resurslarni saqlab qolish, bio xilma-xillikni ta‘minlash, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va nazorat qilish borasidagi ekologik maqsadlarga erishishga hissa qo‘shadi.

1 Green-Bond-Principles-June-2021-140621.pdf (icmagroup.org) ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



“Yashil” obligatsiyalar bozorida qo'llab-quvvatlanadigan “yashil” loyiha toifalari va turlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- Qayta tiklanadigan energiya manbalari (shu jumladan, ishlab chiqarish, yetkazib berish, asbob-uskunalar va mahsulotlarni o'z ichiga olgan holda);
- Energiya samaradorlik (masalan, yangi va ta'mirlangan bino va inshootlarda energiya samaradorligini ta'minlash, markaziy issiqxonalarda energiyani saqlash, aqlli tarmoqlar, asbob-uskunalar va mahsulotlar);
- Ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish (shu jumladan, atmosferaga zararli gazlar chiqishini kamaytirish, issiqxona gazlarini nazorat qilish, ekin maydonlari (tuproqlar)ni tiklash, ifloslanishning oldini olish va kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, chiqindilarni qayta ishlash orqali elektr energiyasini yaratish);
- Jonli tabiiy resurslar va yerdan foydalanish jarayonida ekologik jihatdan barqaror boshqarish (shu jumladan, barqaror qishloq xo'jaligi, ekologik jihatdan barqaror chorvachilik, iqlimga mos qishloq xo'jaligi texnologiyalari, masalan, biologik ekinlarni himoya qilish yoki tomchilab sug'orish, ekologik barqaror baliq ovlash, barqaror o'rmon xo'jaligi, o'rmonzorlarni yaratish va qayta tiklash, tabiiy landshaftlarni saqlash va tiklash);
- Quruqlik va suvda biologik xilma-xillikni saqlash (shu jumladan, qirg'oqdagi, dengiz va suv havzasidagi muhitni himoya qilish);
- Ekologik toza transport (elektr, gibril, jamoat, temir yo'l, ichki yonuv dvigatelsiz multimodal transport, ekologik toza transport vositalari uchun infratuzilma, va zararli chiqindilarni kamaytirish);
- Suv va oqava suvlarni barqaror boshqarish (shu jumladan, toza va (yoki) ichimlik suvi uchun barqaror infratuzilma, oqava suvlarni tozalash, barqaror shahar drenaj tizimlari, daryo qirg'oqlarini tartibga keltirish va suv toshqini bilan kurashishning boshqa usullari);
- Iqlim o'zgarishlariga moslashish (shu jumladan, iqlimni kuzatish va erta ogohlantirish tizimlari orqali taqdim etiladigan axborotlarni qo'llab-quvvatlash);
- Ekologik jihatdan samarali va (yoki) chiqindsiz iqtisodiyotga moslashgan mahsulotlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlar (ekologik barqaror mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish, ekoyorliqlash yoki ekosertifikatlash, tejamkor qadoqlash va tarqatish kabilar);
- Milliy, mintaqaviy yoki xalqaro miqyosda tan olingan standartlar yoki sertifikatlar javob beradigan yashil binolar.

2. Loyihalarni baholash va tanlab olish jarayoni

“Yashil” obligatsiyalar emitenti investorlar e'tiboriga quyidagilarni aniq va tushunarli tarzda yetkazishi kerak bo'ladi:

- ekologik barqarorlik bilan bog'liq maqsadlar;
- emitent tomonidan “yashil” loyihalar uchun qo'yiladigan loyiha toifalari va talablariga muvofiqligining asoslanishi;
- tegishli malaka mezonlari, shu jumladan, qo'llash mumkin bo'lgan hollarda istisno mezonlari hamda loyiha bilan bog'liq bo'lgan muhim ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va boshqarish imkonini beruvchi jarayonlar;
- “Yashil” obligatsiyalar emitentlari yuqorida qayd etilgan loyiha ma'lumotlarini ekologik barqarorlik bilan bog'liq o'zlarining ustuvor maqsadlari, strategiyalari, siyosati va jarayoni sifatida qayd etishlari zarur bo'ladi.

3. Mablag'larni boshqarish

“Yashil” obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar alohida hisob raqamga tushishi va emitent tomonidan mazkur mablag'larning hisobi yuritilishi zarur. Emitent obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'larni “yashil” loyihalarga kreditlash va investisiyalash bilan bog'liq operatsiyalar hisobini yuritish yuzasidan alohida ichki tartib-qoidani belgilab olishi kerak.

“Yashil” obligatsiyalar muomalada bo'lgan davrda obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'larni emitent tomonidan “yashil” loyihalarni amalga oshirish maqsadlariga mos ravishda investisiya kiritilishini vaqti-vaqti bilan naorat qilib borish zarur. Bu borada emitent obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'larning foydalanilmay turgan qismini qanday vositalarga vaqtinchalik joylashtirmoqchi ekanligi to'g'risida ma'lumot berishi kerak.


“Yashil” obligatsiyalar yuqori darajadagi shaffoflikni rag'batlantiradi. Shuning uchun “yashil” obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar tushumini boshqarish va maqsadli ishlatilishini nazorat qilib borish uchun tashqi auditor yoki boshqa uchinchi shaxs jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Hisobot berish

Emitentlar “yashil” obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar sarflanishi bo'yicha ma'lumotlarni doimiy yig'ib borishi va muhim ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda har yili e'lon qilib borishi kerak. Yillik hisobotda obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirilgan loyihalar ro'yxati, mazkur loyihalarning qisqacha tavsifi, loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi va loyihalarni amalga oshirishdan kutilayotgan o'zgarishlar o'z aksini topishi kerak.




Agar raqobat yoki ko'p sonli loyihalar bilan bog'liqligi tufayli shartnoma shartlari ochiqanmaydigan bo'lsa, loyihaning faqat cheklangan tafsilotlari taqdim etilishi mumkin. Obligatsiyalarni chiqarish tamoyillariga ko'ra ma'lumotlar yig'ma shaklda yoki umumiy portfel asosida taqdim etilishi kerak. Masalan, ma'lum bir kategoriyalarga taalluqli loyihalar bo'yicha umumiy tushum hajmiga nisbatan foiz hisobida ifodalash orqali. Loyihaning atrof-muhitga ko'rsatgan va (yoki) kutilayotgan ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishda shaffoflikning ta'minlanishi muhim va alohida ahamiyatga egadir. Obligatsiyalarni chiqarish tamoyillari samaradorlikni aniqlashda sifat ko'rsatkichlardan, shuningdek, agar aniqlash imkoni bo'ladigan bo'lsa, miqdor ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Shu bilan birgalikda bu jarayonda foydalanilgan metodologiyani izohlab ketish zarur bo'ladi. "Yashil" obligatsiyalar yoki "yashil" obligatsiyalar dasturlarining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi qisqa xulosadan foydalanish, shuningdek, ularning "yashil" obligatsiyalar tamoyillari sifatida e'tirof etilgan to'rtta elementiga mos kelishining asoslanishi bu borada bozor ishtirokchilarini xabardor qilish jarayonini osonlashtiradi.



2-rasm: Dunyo miqyosida 2014–2022 yillarda muomalaga chiqarilgan "yashil" obligatsiyalar qiymati (mlrd. AQSH dollarida)²

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oxirgi yillarda dunyo bo'ylab muomalaga chiqarilgan "yashil" obligatsiyalar qiymati keskin oshib bormoqda. Agar 2014-yilda dunyo bo'yicha muomalaga chiqarilgan "yashil" obligatsiyalar qiymati 36,7 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib, "yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarish bo'yicha rekord darajadagi qiymat, ya'ni 582,4 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan natija qayd etildi. 2022-yilda esa, 2021-yildagiga qaraganda biroz kamroq, ya'ni 487,1 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi "yashil" obligatsiyalar muomalaga chiqarildi.

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilda dunyo miqyosida jami 5166 ta "yashil" obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgan. Agar obligatsiyalar emissiyasini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2022-yilda eng ko'p, ya'ni 1696 ta "yashil" obligatsiyalar emissiyasi energiya samaradorligi yuqori bo'lgan binolar qurilishi bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish maqsadlarida chiqarilgan. Suv va oqava suvlarni barqaror boshqarish hamda toza ichimlik suvi uchun barqaror infratuzilmani yaratish maqsadlariga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 1092 ta "yashil" obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgan.



3-rasm: Dunyo miqyosida 2022 yilda muomalaga chiqarilgan "yashil" obligatsiyalar emissiyasi soni³

² <https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide/>

³ <https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide/>



Qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish uchun 1023 ta "yashil" obligatsiyalar emissiyasi qayd qilingan. Ekologik toza transport tizimini yo'lga qo'yish maqsadida 718 ta, chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan 236 ta, yerdan foydalanishda ekologik jihatdan barqaror boshqarish maqsadlari yo'lida 182 ta, sanoat miqyosida ekologik barqaror mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadlarida 37 ta, AKT sohasida 30 ta va iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida 152 ta "yashil" obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish katta hajmdagi investisiyalarni talab qiladi. Bunday xarajatlarni faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirishning imkoni yo'q va bunga mablag' ham yetmaydi. Bu masalaga yechim sifatida kam uglerodli texnologiyalardan foydalanishga xususiy sektorni faol jalb qilish lozim.
2. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda mamlakatimizda "yashil" moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash va bu jarayonga xususiy investorlarni faol jalb qilish maqsadida "Toshkent" respublika fond birjasida "yashil" obligatsiyalar bilan savdo-sotiq qiluvchi alohida bo'limni tashkil etish maqsadga muvofiq, – deb hisoblaymiz. Buning uchun avvalo, tegishli qonun va qonun osti hujjatlariga "yashil" obligatsiyalar tushunchasi, uning turlari va tamoyillariga aniqlik kiritish, so'ngra fond birjasida "yashil" obligatsiyalar bilan savdo-sotiq uchun zarur ekotizimni yaratish zarur.
3. "Yashil" obligatsiyalarni xalqaro kapital bozoriga chiqarish va xalqaro reyestrda kiritish uchun Kapital bozorlari xalqaro Assosiativasi (ICMA) va Iqlim obligatsiyalari tashabbusi (CBI) talablariga talablariga javob berishi kerak. Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqa ko'plab davlatlar "yashil" loyihalar taksonomiyasi (barqaror rivojlanish va "yashil" loyihalarning aniq yo'nalishlari va mezonlari)ni ishlab chiqqan bo'lib, taksonomiya ICMA va CBI talablariga mos keladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham "yashil" loyihalar taksonomiyasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
4. Korporativ tuzilmalar tomonidan xalqaro kapital bozorlarida "yashil" obligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi hisobiga atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, tabiatga zararli chiqindilarning chiqarilishini kamaytirish va barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish orqali mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, iqtisodiyot sub'yektlari tomonidan "yashil" obligatsiyalarni chiqarish hisobiga "yashil" loyihalarni moliyalashtirish ko'lamining ortishi bu borada davlat byudjetidan qilinadigan xarajatlarni qisqarishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarini birinchilar qatorida "yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali xalqaro kapital bozorida mablag'lar jalb qilish hisobiga innovasion texnologiyalarga asoslangan chiqindisiz iqtisodiyotga moslashgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Архипова В. В. "Зелёные" финансы как средство для решения глобальных проблем. Экономический журнал ВШЭ. 2017. Т. 21., №2, С. 314.
2. Шумахер Э. Ф. Маленкое – это прекрасно: изучение экономики, как будто люди имеют значение* (новые переводы). Журнал Экономическая социология. Т. 13., №1. Январь 2012. www.ecsoc.hse.ru;
3. Caroline Flammer, Corporate green bonds, Journal of Financial Economics, Volume 142, Issue 2, 2021, Pages 499–516, ISSN 0304–405X, <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0304405X21000337>
4. Juan C. Reboredo, Green bond and financial markets: Co-movement, diversification and price spillover effects, Energy Economics, Volume 74, 2018, Pages 38–50, ISSN 0140–9883, <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0140988318302032>
5. Коданева С. И. "Зеленые инвестиции" в России и зарубежом: проблемы, механизмы, перспективы. Россия и мир в XXI веке. – с. 68–88. DOI: 10.31249/rsm/2020.03.05.
6. <https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

